

**AQLI ZAIF BOLALARNI O'ZBEK MILLIY O'YINLAR ORQALI
RIVOJLANTIRISH****Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li***Turan International University maxsus pedagog o'qituvchisi**+99893 047-63-96*

Annotatsiya: aqlli zaif bolalarni rivojlantirishda O'zbek milliy o'yinlarining ahamiyati o'rganiladi. O'zbek milliy o'yinlari, o'ziga xos madaniy meros sifatida, bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Tadqiqotda milliy o'yinlarning aqlli zaif bolalar uchun foydalari, ularning o'zaro muloqotini, diqqatini va motor ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolga e'tibor qaratiladi. Milliy o'yinlar aqlli zaif bolalar uchun muhim vosita bo'lib, ularning o'z-o'zini anglashini, ijtimoiy ko'nikmalarini va hissiy barqarorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston ta'lim tizimida milliy o'yinlardan foydalanishni kengaytirish va aqlli zaif bolalar bilan ishlashda yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: aqlli zaif bolalar, o'zbek milliy o'yinlari, jismoniy faoliyat, ruhiy rivojlanish, o'zaro muloqot, ta'lim jarayoni, o'yin orqali o'qitish, psixologik barqarorlik, pedagogik yondashuvlar, bolalar psixologiyasi, o'z-o'zini anglash, otalar roli.

Аннотация: изучено значение узбекских национальных игр в развитии умственно слабых детей. Узбекские национальные игры, как уникальное культурное наследие, вносят большой вклад в физическое, умственное и социальное развитие детей. В исследовании основное внимание уделяется пользе национальных игр для детей с ограниченными интеллектуальными возможностями, их роли в развитии общения, внимания и моторики. Национальные игры являются важным инструментом для детей с ограниченными умственными способностями и их самопомощью, повышают самосознание, социализацию, навыки и эмоциональная стабильность. Данное исследование предлагает новые подходы к расширению использования национальных игр в системе образования Узбекистана и работе с умственно отсталыми детьми.

Ключевые слова: умственно отсталые дети, узбекские национальные игры, двигательная активность, умственное развитие, взаимодействие, образовательный процесс, обучение через игры, психологическая устойчивость, педагогические подходы, психология ребенка, роль родителей.

Abstract: the importance of Uzbek national games in the development of intellectually weak children is studied. Uzbek national games, as a unique cultural

heritage, greatly contribute to the physical, mental and social development of children. The study focuses on the benefits of national games for children with intellectual disabilities, their role in the development of communication, attention and motor skills. National games are an important tool for children with intellectual disabilities and their self- helps increase self-awareness, social skills and emotional stability. This study offers new approaches to expand the use of national games in the educational system of Uzbekistan and work with mentally retarded children.

Key words: *mentally retarded children, Uzbek national games, physical activity, mental development, interaction, educational process, teaching through games, psychological stability, pedagogical approaches, child psychology. self-awareness, the role of parents.*

"Aqlan zaiflik" — bu yigʻma tushuncha boʻlib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir boʻlgan vaqti, boshidan kechirilgan kasallikning harakteri, patologik oʻzgarishlarning oʻtishi, darajasi bilan bogʻliq boʻlgan masalalarni koʻzda tutadi. Aqliy qoloqlikni belgilashda klinik, psixologik va pedagogik mezonlarni tafovut qilmoq kerak. Klinik mezon — aqliy qoloqlik va bu markaziy nerv sistemasining qanday organik kasalliklariga aloqadorligini, psixologik mezon-bilish faoliyatining turgʻun buzilganligini. Pedagogik mezon — oʻzlashtirish qobiliyati past boʻlib, bolaning dastur materiallarini oʻzlashtira olmasligini ifodalaydi. Aqli zaif bolalarning katta qismida manipulyatsiyalar bilan bir qatorda protsessual harakatlar ham uchrab turadi, bunda bola birgina oʻyin jarayonini toʻxtamasdan takrorlayveradi. Qoʻgʻirchoqning kiyimlarini yechadi va kiydiradi, kubiklardan yasagan qurilmasini buzadi va qayta quradi. Taʼlim olmagan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar oʻyinlarining farqli jihati noadekvat harakatlarning mavjudligi hisoblanadi. Bunday harakatlar na mantiqan, na oʻyinchoqning funksional vazifasi bilan ruxsat etilmaydi. Sogʻlom maktabgacha yoshdagi bola choʻpdan qoshiq oʻrniga foydalanadi, kubikni sovun oʻrniga va b. mamnuniyat bilan qoʻllaydi. Bunday harakat oʻyin talablaridan kelib chiqan holda bajariladi va rivojlanishning yuqori darajasidan dalolat beradi. Bunday harakatlar oʻyin talablari bilan shartlanadi va uning yuqori rivojlanish darajasidan dalolat beradi. Biroq aynan predmet oʻrinbosarlarni qoʻllash orqali bunday harakatlar maxsus maktabgacha taʼlim muassasasiga qabul qilinayotgan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi. Oʻzbekistonning boy madaniy merosi va anʼanaviy oʻyinlari bolalarning rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Ayniqsa, aqli zaif bolalar uchun milliy oʻyinlar taʼlim va rivojlanish jarayonida samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Aqli zaif bolalarni har tomonlama rivojlantirish zamonaviy pedagogika va psixologiyada dolzarb masala hisoblanadi. Anʼanaviy taʼlim usullari har doim ham bu bolalarning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi. Shu sababli, ularning intellektual, jismoniy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini taʼminlash uchun

innovatsion va samarali usullarni izlash zarur. O'zbek milliy o'yinlari asrlar davomida shakllangan bo'lib, ular bolaning turli qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu o'yinlar:

- Jismoniy rivojlanish: "Qo'chqor", "O'rdak", "Yugurish", "Sakrash" kabi o'yinlar bolaning mushaklarini mustahkamlaydi, tezlik, chidamlilik va muvozanatni rivojlantiradi.
- Intellektual rivojlanish: "Topishmoqlar", "Kim tez?", "Xotira o'yinlari" kabi o'yinlar bolaning fikrlash qobiliyatini, mantiqiy tafakkurini va xotirasini rivojlantiradi. Strategiya talab qiladigan o'yinlar esa reja tuzish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.
- Ijtimoiy-emotsional rivojlanish: jamoaviy o'yinlar ("Dasta", "Kosaklar", "Qo'g'irchoq o'yinlari") bolaning jamoada ishlash, hamkorlik qilish, qoidalarga rioya qilish va o'zaro munosabatlarni o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'ziga ishonch va o'z-o'zini boshqarish ham shu o'yinlar orqali shakllanadi.

O'yin – bolalar faoliyatining shunday turlaridan biriki, u kattalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni predmetlar bilan turli harakatlarni amalga oshirish, muloqotning usul va vositalariga o'rgatish orqali tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi. O'yin davomida bola shaxs sifatida rivojlanadi, bolaning o'quv va tarbiyaviy faoliyati, uning kishilarga bo'lgan munosabatining muvaffaqiyati undagi ruhiy jihatlar rivojiga bog'liq bo'ladi. O'yin texnologiyalarida muhim rol yakuniy o'tmishga qaratilgan muhokamaga tegishli bo'lib, unda o'quvchilar o'yinning borishi va natijasini, o'yin modeli va voqelikni, shuningdek o'quv-o'yin o'zaro faoliyatining borishini birgalikda tahlil etadi. O'yin yaqin rivojlanish zonasini ta'minlovchi, aqli zaif bolaning psixologik ko'rinishini shakllanishiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi faoliyat bo'lishi kerak. O'yin mashg'ulotlari tizimining asosiy vazifalari: 1. Bolalarda muhokama etilayotgan vazifa yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga, o'z takliflarini kiritishga bo'lgan istakni shakllantirish. 2. Bolalarni muhokama etilayotgan mavzuga doir o'z shaxsiy tajribasi orqali yoki boshqa kishilar tajribasidan ma'lum dalillarni yodga tushurishga, shuningdek improvizatsiya (fantaziya etishga) etishga, gaplarni qurishga o'rgatish. 3. Bolalarni o'zaro bir-birini tinglashga va bir-biridan olgan dalillardan foydalanishga o'rgatish. 4. Bolalarni ahloqiy baholarga tayangan holda shaxsiy qarorlarni tanlashga o'rgatish. O'yinning rivojlantiruvchi ahamiyati nafaqat bolalarning har tomonlama rivojlanish imkoniyatini amalga oshishidan, balki u bolalarning qiziqish doiralarini kengayishiga, bilim olishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishiga ko'maklashadi. O'yinning diagnostik roli ham katta. U bolaning ko'pgina shaxsiy sifatlarining rivojlanish darajasini, uning bolalar jamoasidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Aqli zaif bolalarda mustaqil, ketma-ketlikdagi o'yinning

borishini tormozlovchi ko'pgina sabablar orasida, birinchi navbatda asosiysini, bosh miya qobig'ining integrativ faoliyatining rivojlanmaganligini ko'rsatish kerak. Bola rivojlanishi uchun lozim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarning mavjud emasligi ham o'yin faoliyatining shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. O'yin davomida bolalar jamoaviy tafakkurlashning ilk tajribalarini egallashlari isbotlangan. Olimlarning fikricha, bolalar o'yini kattalarning mehnat va ijtimoiy faoliyatining aksi sifatida paydo bo'lgan. Biroq ma'lumki, o'ynay olish kundalik hayotda egallanganlarni o'yinga avtomatik tarzda ko'chirish yo'li bilan amalga oshmaydi. Bolalarni o'yinga o'rgatish kerak. Jamiyat tomonidan o'z madaniyatini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazishning muvaffaqiyati kattalar tomonidan bolalarga taklif etiladigan o'yinlarga qanday mazmun berilishiga bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajribaning samarali o'zlashtirilishi faqatgina bolaning faoliyati jarayonida, uning shaxsiy faolligi sharoitidagina amalga oshadi. Aqli zaif bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin aqli zaif bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir, ijodiy va syujetli o'yinlarda aqli zaif bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi.

O'yinning aqli zaif bolalar psixik taraqqiyotidagi qudratli roli mashxur pedagog va psixologlardan tashqari mutafakkir yozuvchilarni ham diqqat e'tiborini jalb etgan. Masalan rus yozuvchilaridan biri M.Gorkiy bolalar o'yin va uning moxiyati haqida shunday degan edi. «O'yin bolalar uchun o'zlari yashab turgan dunyoni bilish hamda uni o'zgartirish qurolidir». O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish xom,xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlashgan. Mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon buladi. Rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;2) aqli zaif bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirolmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish);3) aqli zaif bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi; 4) aqli zaif bolada o'z xatti-

harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi; 5) aqli zaif bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi. Aqli zaif bolalar uchun milliy o'yinlarni moslashtirish muhimdir. Buning uchun:

- Qoidalarni soddalashtirish: o'yin qoidalari bolaning tushunish darajasiga mos ravishda soddalashtirilishi kerak.
- Yordam berish: bolalarga o'yin jarayonida kerakli yordam berilishi, ularning muvaffaqiyatli ishtirok etishlari ta'minlanishi lozim.
- Sabr-toqat: o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarga nisbatan sabr-toqatli bo'lishlari kerak. Har bir bola o'z sur'atida rivojlanadi.
- Rag'batlantirish: muvaffaqiyatlar rag'batlantirilishi, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi oshirilishi kerak.
- Individual yondashuv: har bir bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi, individual yondashuv qo'llanilishi kerak. Bolalarni osonroq o'yinlardan boshlash va asta-sekin murakkabroq o'yinlarga o'tish tavsiya etiladi. O'yinlar ochiq havoda, binoda, guruhlarda yoki individual ravishda o'tkazilishi mumkin. O'yinlar ta'lim jarayoniga organik ravishda integratsiya qilinishi, shu orqali bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam berilishi kerak. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek milliy o'yinlari aqli zaif bolalarni rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi. Ularning turli qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi, shuningdek, bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'siri ularning qo'llanilishini yanada muhim qiladi. Ammo, o'yinlarni bolaning ehtiyojlariga moslashtirish va samarali qo'llanish usullarini qo'llash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. O'YIN FAOLIYATI MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IJTIMOY MOSLASHUVINING VOSITASI SIFATIDA .Djurayeva Sohiba Barat qizi.
2. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligi" Ilmiy-metodik to'plam, T-2013
3. "Praktikum po psixologii umstvenno otstalogo rebyonka". M., 1985.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik, saylanma. Xalq merosi.1993.
5. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri" \ tuzuvchi Mahmudov M. – T.: Xalq merosi. 1993

6. Burlachuk L.S. Psixodiagnostika: Uchebnik dlya vuzov. SPb.: Piter, 2001.
7. MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI p.f.n., dotsent Amirsaidova Sh.M .Maftuna Eshtemirova Alisher qizi.
8. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-10-06-08-06_b37276f2cbd8d852bfa1440b76786618.pdf

